

BOG‘CHA DAVRIDAGI BOLALAR PSIXIKASIDA MAS‘ULIYAT

**ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrası
o‘qituvchisi : Nodiraxon Tojiboyeva
ADPI o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
103-guruh talabasi
Karimova Xolinisoxon To‘xtamurod qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davrida rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, bog‘cha davridagi bolalar tarbiyasida ahamiyat berilishi kerak bo‘lgan jihatlari; ularning psixikasidagi o‘zgarishlar, ba’zi holatlarda kuzatiladigan og‘ishlar, bartaraf etish zarur bo‘lgan muammoli vaziyatlar izohlanadi.

Kalit so‘zlar: psixologik rivojlanish, xarakter, psixologik xususiyat, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy me’yor, pedagogika, psixologiya, xulq-atvor.

Psixik rivojlanish ona qornidan boshlab shakllanishi barchamizga ma’lum. Odam rivojlanishining har bir bosqichida psixologik rivojlanish jarayoni turlicha kechadi. Maktabgacha yosh davri 3-7 yoshlarni qamrab oladi va bu yosh oralig‘i rivojlanayotgan bola ongida muhim ahamiyat kasb etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mashhur rus pedagogi Lesgaft ham bu davrga shunday ta’rif beradi:

Insonning bog‘cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Biz maktabgacha yosh davrini bevosita „bog‘cha davri“ deb atashimiz mumkin. Tabiiyki, bog‘cha davridagi bolalarning aksariyati serharakat va o‘yinqaroq bo‘ladilar. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, bu yoshdagi bolalar ko‘rgan narsalarini uqib, o‘zlashtirib olishga layoqatli bo‘ladilar, garchi ular o‘zlashtirayotganlarini salbiy yoki ijobiy ekanligini farqlay bilmasalarda.

Ma’um yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga masadga muvofiq ravishda ta’lim-tarbiya berib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham pedagoglarga, ya’ni tarbiyachilarga juda katta mas’uliyat nazari bilan qaraladi.

Bog‘cha davridagi bolalarning bir nechtasini kuzatishimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, bolalar o‘zining ichki dunyosiga ega bo‘ladilar va u yashayotgan muhit, oila sharoiti, ota-ona munosabatlari bolaning ichki dunyosiga salbiy yoki ijobiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Agar uyida bolaga e’tibor bo‘lsa, u tarbiyachi tomonidan ko‘rsatilgan topshiriqlarni bajarishdan qochmaydi, lekin aksincha bo‘lsa, bola tarbiyachining topshiriqlariga nisbatan e’tiborsizlik ko‘rsatadi. Nega bunday? Chunki, ota-onalar talabchan, o‘z farzandining kelajagiga e’tiborli, mas’uliyatli bo‘lsalar farzandi bog‘chadan qaytganidan so‘ng kuni qanday o‘tganligi haqida so‘raydilar va bunga javob berish uchun ham bola nimalarnidir o‘zlashtirishga kirishadi. Agar ota-ona farzandini shunchaki kuni o‘tishi uchungina yuborsa, bog‘chadan kelganidan so‘ng unga e’tibor bermasa bola ham shu holatga moslashadi. Ota-ona e’tibori maktabgacha yosh davrida bo‘lgan bolalar psixologiyasi uchun juda ham muhim. Zero, inson tarbiyasida, ijtimoiy me’yorlari talabida tarbiyalashda eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, „Yoshlarimiz tarbiyasi qanchalik mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi“. Shunday ekan tarbiya berishda kechikmaslik darkor, ayniqsa, bog‘cha davridagi bolalar tarbiyasi juda ham mo‘rt bo‘ladi. Shunday paytda bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun e’tibor va mas’uliyat talab etiladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqi birmuncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘ziga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Masalan, har xil narsalarga qiziqish bildiradilar, ko‘p savollar beradilar va bu savollarga javob talab qiladilar. Qisqa qilib aytishimiz mumkinki, bola bu davrda muloqotga tashna bo‘ladi. Shunday paytda ota-ona yoki tarbiyachilari ular bilan iloji boricha ko‘proq suhbat qurishlari, qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashi, savollariga o‘rinli javob berishlari zarur bo‘ladi. Bola yashayotgan muhit shunday bo‘lishi kerakki, u hech qachon yolg‘izlanib qolmasin. Muammoli vaziyatlardan biri shuki, ota-onalar bola bilan suhbat qurishni xohlamaydilar, aniqrog‘i vaqt ajratmaydilar, o‘zlarini

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bolaning savollaridan xalos etish maqsadida bolani televizor yoki telefon bilan ovuntiradilar. Bu esa albatta, bolaning ruhiyatiga sezilarli darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Keyinchalik esa ota-onalar farzandining televizor ko‘rishdan yoki telefondagi o‘yinlarni o‘ynashdan to‘xtata olmayotganlaridan e’tiroz bildiradilar.

Ma’lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati o‘yindir. Inkor etib bo‘lmaydigan mashg‘ulot-o‘yin har qanday bolani o‘ziga jalb eta oladi. O‘yinlar ham bolalarning yoshiga qarab turli shakllarga ega. 3-4 yoshli bolalarni predmetli o‘yinlar, ya’ni rangli, rasmi o‘yinlar bilan mashg‘ul qilish olimlar tomonidan tavsiya etiladi, 5-7 yosh oralig‘idagi bolalarga esa musobaqali o‘yinlarni o‘ynatish foydaliroq, chunki ular shartlarni o‘zlashtira oladilar. O‘yinlar shunday bo‘lishi kerakki, bolani ham fiziologik jihatdan, ham psixologik jihatdan shakllanishida xizmat qilishi kerak. Qolaversa, o‘yin yakunida bolalarni rag‘batlantirish ham bola ruhiyati uchun ijobiy ta’sir o‘tkazadi. O‘yin mobaynida tarbiyachilar e’tibor berishi kerak bo‘lgan jihat shundaki, bolalarning hammasi o‘yinga qamrab olinishi kerak, hech qaysi bola e’tibordan chetda qolmasligi darkor. O‘yin mobaynida xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan bolani tengdoshlari orasida izza qilish bolaning psixikasida salbiy iz qoldiradi. Misol uchun keyinchalik shu o‘yinni o‘ynashga qiziqish bildirmaydi, eng yomoni esa tengdoshlariga qo‘shila olmaslik holatlari, ularning yonida o‘zini noqulay his qilishi mumkin.

Bog‘cha davridagi bolalarning psixik taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlanib, uning tashqi muhit bilan bo‘lgan munosabatlarida birmuncha o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bunga sabab esa bola bu davrda ota-onasining doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘ladi. Bizning etnopsixologiyamizda shunday narsa borki, maktabgacha yosh davridagi boladan keyin ham farzand bo‘lsa, ko‘proq e’tibor chaqaloqqa ketadi va natijada inqirozni boshidan o‘tkazayotgan bola e’tibordan chetda qoladi. Shunday paytda bolaning qiziqish va ehtiyojlari haqida o‘rtoqlashuvchi inson bo‘lishi juda ham muhim. Unutmasligimiz lozimki, bola bu davrda juda ixtiyorsiz va qiziquvchan bo‘ladi. Ularda taqlidchanlik xususiyatlari hamda erkaliklar, noroziliklar juda ko‘p kuzatiladi. Shu boisdan, ota-onalar va tarbiyachilar bola uchun asosiy yo‘naltiruvchi vazifasini o‘taydi. Bolaning shakllanayotgan qiziqishlarini e’tiborga olgan holda u qo‘llab-quvvatlansa, bolaning tarbiyasida hamda psixikasida turli og‘ishlar kuzatilmaydi. Agar bolada agressiv holatlar, ya’ni, g‘azab, jahldorlik, o‘jarlik, arzimagan narsaga arazlash kabi holatlar kuzatilsa bunday holatlarda, ota-onalar qattiqqo‘llik bilan emas, aksincha ularga sovg‘alar ulashish yoki ularni maqtash orqali vaziyatni yumshatishlari mumkin. Zero, bolaning ruhiyati sinmasin, undagi „men“ to‘liq shakllanishi uchun to‘liq va qulay muhit yaratish eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stmuhammedova SH.A, Tillashayxova X.A, Baykunosova G.YU, Ziyavitdinova G.Z, „Yosh davrlari va pedagogik psixologiya“
2. Ivanov I, Zufarova M. „Umumiy psixologiya“
3. „Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi“
4. Xosilbekovna, s. f. (2024). The impact of globalization on the manifestation of aggressive behavior in adolescence. *Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 134-137.
5. Xosilbekovna, s. f. (2024). Social and psychological determinants of increasing women's labor efficiency are related to the topic. *ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 440-443.